



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 12-mart

121-6-81-Q/25

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2025-yil 7-martda “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining tuman (shahar) bo‘linmalari tizimidagi ma’naviyat va ma’rifat maskanlari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 3-martdagi 138-son qarori ijrosi haqida”gi 113-6-0-Q/25-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining tuman (shahar) bo‘linmalari tizimidagi ma’naviyat va ma’rifat maskanlari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash chora -tadbirlari to‘g‘risida” 2025-yil 3-martdagi 138-son hamda Namangan viloyati hokimining 2025-yil 7-martdagi 113-6-0-Q/25-sonli qarorlari ijrosini ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 21¹-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2025-yil 7-martdagi 113-6-0-Q/25-sonli qarori ijrosi rahbarlik va ijrosini ta’minlash uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 3-martdagi 138-son qarori bilan:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi PQ–5040-son qaroriga muvofiq, hududlarda ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini mustahkamlash, aholi, ayniqsa, yoshlar ongi va qalbida ma’naviy fazilatlarni yuksaltirish, oila va mahallalarda hamjihatlikni mustahkamlash maqsadida barcha tuman va shaharlarda ma’naviyat va ma’rifat maskanlarini (keyingi o‘rinlarda – maskanlar) tashkil etish belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinganligi;

quyidagilar:

Ma’naviyat va ma’rifat maskanlarining namunaviy tuzilmasi 1-ilovaga muvofiq;

Ma’naviyat va ma’rifat maskanlarini moddiy-texnik jihatdan jihozlashga doir minimal talablar 2-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

belgilanishicha:

maskanlar Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining tuman (shahar) bo‘linmalari tizimida tashkil etilishi;

maskanlarning shtat birliklarini shakllantirish hamda saqlash Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bo‘limlari, shuningdek, tuman (shahar) bo‘linmalarining shtat birliklari va mehnatga haq to‘lash jamg‘armasi doirasida amalga oshirilishi;

Maskanlarning binolarini saqlash bilan bog‘liq xarajatlar 2025-yildan boshlab bosqichma-bosqich Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy byudjeti mablag‘lari hisobidan amalga oshirilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman bo'limi (D.Jo'raboyeva), manfaatdor idoralar bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 3-martdagi 138-son qarori talablari asosida ish tashkil etsin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha birinchi o'rinbosari –tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i A.Abdusalomov hamda tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari J.Raximov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov